



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI

## XORAZM VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma’lumot  
2025- yil yanvar-fevral*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo‘limi*

*Тел. 62-224-65-09*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari, foizda)




2025- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 402 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 70 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 332 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-fevral, mlrd so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar) da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 126,0 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,  
oylar kesimida  
(2024- 2025- yillar, foizda)**



2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 002,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 109,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 78,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 60,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 924,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,1%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 399,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,8 %) tashkil etdi.


**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2025- yil yanvar-fevral oylari)

	<b>Jami, mlrd so'm *</b>	<b>2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 002,3</b>	<b>109,4</b>
Urganch sh.	425,9	117,4
Xiva sh.	94,8	105,1
Bog'ot	119,0	106,7
Gurlan	160,2	107,1
Qo'shko'pir	107,8	111,2
Urganch	263,9	107,4
Hazorasp	216,4	105,1
Tuproqqal'a	47,6	107,7
Xonqa	134,6	105,2
Xiva	72,7	105,4
Shovot	146,8	111,3
Yangiariq	87,4	105,4
Yangibozor	53,5	108,7

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Urganch (117,4%) shahri, Shovot tumani (111,3 %) va Qo'shko'pir tumanida (111,2 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri 22,1 % bilan 425,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida 2,5 % bilan 47,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




### Hajmi, mlrd so'm

Urganch sh.	425,9
Urganch	263,9
Hazorasp	216,4
Gurlan	160,2
Shovot	146,8
Xonqa	134,6
Bog'ot	119,0
Qo'shko'pir	107,8
Xiva sh.	94,8
Yangiariq	87,4
Xiva	72,7
Yangibozor	53,5
Tuproqqal'a	47,6




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 924,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 13,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,1 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 39,4 % ga kamaydi va 78,0 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,9 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Gurlan va Qo'shko'pir (99,4 %), Yangiariq (99,3 %), Urganch va Xonqa (mos ravishda 99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (9,2 %), Yangibozor tumani (8,6 %), Xiva shahri (3,6 %) va Bog'ot tumanida (3,6 %) kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 994,2 ming so'm (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,4 %) ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Urganch shahri (2 758,6 ming so'm), Urganch (1 222,1 ming so'm) va Hazorasp (1 040,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda**



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2025- yil yanvar-fevral)**

	<b>Jami, mlrd so'm</b>	<b>2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>399,7</b>	<b>116,8</b>
Urganch sh.	64,7	126,7
Xiva sh.	18,3	118,5
Bog'ot	43,1	106,3
Gurlan	61,9	110,1
Qo'shko'pir	41,6	127,4
Urganch	-	-
Hazorasp	47,4	111,0
Tuproqqal'a	5,7	106,2
Xonqa	23,7	107,3
Xiva	-	-
Shovot	72,9	126,9
Yangiariq	12,3	110,2
Yangibozor	8,0	108,4


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar  
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda  
(2025- yil yanvar-fevral)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,  
mlrd so'm (2025- yil yanvar-fevral)**



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 399,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 116,8% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 4-bozor va 4-bozor (chorva) (choraklik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 185,0 mlrd so'mni (118,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 214,7 mlrd so'mni tashkil etdi (115,8 %).












2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 185,0 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (93,7 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>93,7 mlrd so'm</b></p>  <p><b>50,6 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>14,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>7,8 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>10,6 mlrd so'm</b></p>  <p><b>5,7 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>6,4 mlrd so'm</b></p>  <p><b>3,5 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>8,1 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,4 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>5,9 mlrd so'm</b></p>  <p><b>3,2 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>4,7 mlrd so'm</b></p>  <p><b>2,5 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>10,1 mlrd so'm</b></p>  <p><b>5,4 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>3,3 mlrd so'm</b></p>  <p><b>1,8 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>3,8 mlrd so'm</b></p>  <p><b>2,0 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>4,0 mlrd so'm</b></p>  <p><b>2,2 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>20,3 mlrd so'm</b></p>  <p><b>10,9 %</b></p>

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 214,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 196,5 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 17,0 mlrd so'mni, parrandalar – 1,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar
108,9 mlrd so'm	56,5 mlrd so'm	31,1 mlrd so'm
 50,7 %	 26,3 %	 14,5 %
<b>Qo'ylar</b>	<b>Otlar</b>	<b>Echkilar</b>
15,0 mlrd so'm	0,04 mlrd so'm	2,0 mlrd so'm
 7,0 %	 0,02 %	 0,9 %
<b>Kurka, o'rdak, g'oz</b>	<b>Tovuqlar</b>	<b>Quyionlar</b>
0,7 mlrd so'm	0,4 mlrd so'm	0,00 mlrd so'm
 0,3 %	 0,2 %	 0,01 %
<b>Qushlar</b>		
0,003 mlrd so'm		
 0,001 %		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 345 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 342 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 523,2</b>	<b>111,2</b>
Urganch sh.	28,3	108,8
Xiva sh.	4,0	111,2
Bog'ot	4,7	109,8
Gurlan	1,0	108,7
Qo'shko'pir	1,0	112,2
Urganch	11,8	161,6
Hazorasp	2,4	111,2
Tuproqqal'a	0,8	110,7
Xonqa	4,8	108,7
Xiva	1,2	105,4
Shovot	4,7	107,0
Yangiariq	2,5	106,2
Yangibozor	2,3	113,0

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 523,2 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	<b>Hajmi, mlrd so‘m</b>	<b>Ulushi, Foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>537,2</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	433,8	80,7
Xiva sh.	7,9	1,5
Bog‘ot	13,1	2,4
Gurlan	12,1	2,3
Qo‘shko‘pir	2,2	0,4
Urganch	9,6	1,8
Hazorasp	26,1	4,9
Tuproqqal‘a	2,6	0,5
Xonqa	13,5	2,5
Xiva	1,2	0,2
Shovot	5,6	1,0
Yangiariq	6,8	1,3
Yangibozor	2,6	0,5


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Urganch shahrii (433,8 mlrd so‘m), Hazorasp (26,1 mlrd so‘m) va Xonqa (13,5 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd so‘m)



2025- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 537,2 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,4 % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 422,8 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 113,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 100,0 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 31,6 %) ni tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 237,6 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 215,7 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,2 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 237,6</b>	<b>108,9</b>
Urganch sh.	665,8	107,0
Xiva sh.	30,5	118,2
Bog'ot	14,7	116,2
Gurlan	19,7	110,8
Qo'shko'pir	11,3	111,2
Urganch	188,8	106,2
Hazorasp	13,8	121,8
Tuproqqal'a	13,0	115,3
Xonqa	48,0	114,0
Xiva	58,6	111,5
Shovot	19,3	115,3
Yangiariq	40,2	112,8
Yangibozor	20,9	114,3

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 058 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 032 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Tuproqqal'a (15,2 b.), Yangiariq (4,0 b.) va Qo'shko'pir (2,8 b.) tumanlarida kuzatildi.